



UDK 65.3977

ZAMONAVIIY XALQARO MUNOSABATLARDA DAVLATLARARO ALOQALAR TUSHUNCHASINING MAZMUNI VA MOHIYATI.

Abdurazakova Kamolaxon Yusupovna

*Alisher Navoiy nomli Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti Universiteti katta o'qituvchisi*

kamola.abdurazakova@gmail.ru

Annotation. Global processes and problems that are important for the future of humanity, such as political tension, energy resource shortages, and food shortages, are deepening in the world. The intensity of changes in the globalization process requires the search for optimal directions for strengthening interstate relations and the political study of issues related to their direction for the development of countries. In the current era, strengthening ties between the leading countries related to the development of regional cooperation in the world arena, effectively using existing opportunities, is a difficult and complex task, which, in turn, is due to the existence of certain problems awaiting their solution in such issues as improving the mechanisms for developing interstate relations, which is an important area of cooperation.

Keywords: interstate relations, international relations, national interests, foreign policy, economic liberalism, realistic approach, democratic world, liberal institutionalism, transformational approach, universalism theory, cultural-civilized approach.

Аннотация. В мире наблюдается углубление таких глобальных процессов и проблем, как политическая напряженность, дефицит энергоресурсов, продовольственный кризис, которые имеют важное значение для будущего человечества. Стремительность преобразований в процессе глобализации требует поиска оптимальных путей укрепления межгосударственных отношений и изучения в политическом отношении вопросов направления их на развитие стран.

В настоящее время для развития на мировой арене регионального сотрудничества укрепление отношений между связанными с ним ведущими странами, эффективное использование имеющихся возможностей является многогранной и сложной задачей, которая, в свою очередь, в таких вопросах, как совершенствование механизмов развития межгосударственных отношений, являющейся важным направлением сотрудничества, упирается в наличие некоторых проблем, ожидающих своего решения.

Ключевые слова: Межгосударственные отношения, Международные отношения, национальные интересы, внешняя политика, экономический либерализм, реалистический подход, демократический мир, либеральный институционализм, трансформационный подход, теория универсализма, культурно-цивилизационный подход.

Kirish. Jahonda insoniyat kelajagi uchun muhim bo‘lgan, siyosiy tanglik, energiya resurslarining taqchilligi, oziq-ovqat yetishmasligi kabi global jarayonlar va muammolar chuqurlashib bormoqda. Globallashuv jarayonidagi o‘zgarishlar shiddati davlatlararo aloqalarni mustahkamlashning optimal yo‘nalishlarini izlab topishni va uni mamlakatlar taraqqiyotiga yo‘naltirish masalalarini siyosiy jihatdan o‘rganishni talab etmoqda. Hozirgi davrda dunyo maydonida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish uchun unga bog‘liq yetakchi davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish serqirra va murakkab vazifa bo‘lib, bu, o‘z navbatida, hamkorlikning muhim sohasi bo‘lmish davlatlararo aloqalarni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish kabi masalalarda o‘z yechimini kutayotgan ayrim muammolar mavjudligiga borib taqaladi.

Asosiy qism. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda, davlatlararo munosabatlarni tadqiq etishda uning nazariy asoslarini tadqiq etish muhimdir. Davlatlararo munosabatlarni nazariy tadqiq etishdan ko‘zlangan maqsad – o‘zaro munosabatlarning mohiyatini tushunib yetish hamda uni tadqiq etishga nisbatan maqbul yo‘nalishni aniqlash. Zero, davlatlararo aloqalar tushunchasini tadqiq etish bugungi o‘zgarib borayotgan hamkorlik dinamikasi bilan bog‘liq.

Ko‘pgina mualliflarning fikricha, davlatlararo aloqalar, davlatlar tizimlari, shuningdek, xalqaro maydonda faoliyat ko‘rsatayotgan turli davlat va jamoat institutlari o‘rtasidagi integratsion iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, diplomatik, harbiy va boshqa sohalaridagi munosabatlar majmui bo‘lgan xalqaro munosabatlarning asosiy elementi sifatida qaraladi²⁵.

Rummel davlatlararo aloqalar tushunchasiga quyidagicha ta’rif bergan: “Davlatlararo aloqalar bir davlat rahbari, hukumat tashkilotlarining ikkinchi davlat rahbari, hukumat tashkilotlari, yoki manfaatdor guruhlar va fuqarolari bilan ikki tomonlama yoki xalqaro tashkilotlar doirasida o‘zaro aloqalarni olib borishdir”. Yuqorida keltirilgan ta’rifga izoh berar ekanmiz, davlatlar o‘rtasidagi aloqalar ikki davlat siyosiy hokimiyati vakillari tomonidan munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarida hamkorlik qilish kabi vazifalarni qamrab oladi.

Rummel fikricha, davlatlararo aloqalar o‘z tuzilishiga ega bo‘lgan yirik, murakkab dinamik tizimdir²⁶. Uning tarkibiy qismlari sifatida ijtimoiy munosabatlarning shakli va xarakteri bilan farq qiluvchi bir qator kichik tizim osti bo‘g‘inlar namoyon bo‘ladi. Jahon sahnidagi mavjud ijtimoiy tizimlar yaxlit rivojlanib, o‘zaro aloqada bo‘lgan hozirgi davrda ularning har biri, o‘z

²⁵Л.Воронков “Международные организации и современные международные отношения” Elektron manba: <https://interaffairs.ru/jauthor/material/951> elektron manba. kirilgan sana: 12.01.2021

²⁶ R.Rummel “THE INTERNATIONAL ACTORS” <https://www.jstor.org/stable/174325> elektron manba. kirilgan sana: 12.01.2021

navbatida, tabiatda turlicha bo‘lgan o‘ziga xos murakkab davlatlararo munosabatlarni ifodalaydi. Bundan tashqari, global davlatlararo munosabatlar tizimi doirasida Yevropa, Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi va boshqalarning yirik geografik hududlari chegaralarida milliy va mintaqaviy hamda mintaqalararo tizimlarni ajratish mumkin.

Davlatlararo aloqalarning subyektlari davlatlar va ularning uyushmalari, harbiy-siyosiy birlashmalar, integratsion guruhlar, xalqaro hukumatlararo va jamoat (nodavlat) tashkilotlari hisoblanadi.

Davlatlararo aloqalarga G.Morgentau ta’rif berar ekan, asosiy e’tiborni milliy manfaatlarni olg‘a surish, himoya qilish hamda o‘zaro aloqalarda iloji boricha ko‘proq manfaat ko‘rishga qaratadi²⁷.

Davlatlararo aloqalarga O‘zbekistonlik olimlardan Q.Djurayev quyidagicha ta’rif beradi: xalqaro huquq subyektlarini ularning manfaatlarini muvofiqlashtirish, urush va tinchlik masalalarini hal etish, butun insoniyatning yashab qolishi, yalpi xavfsizlik va qurolsizlanishni ta’minlash, global, mintaqaviy va milliy nizolarni hal etish va ularning oldini olish, atrof-muhitni muhofaza qilish, qoloqlik va qashshoqlikka, ochlik va kasalliklarga barham berish, insoniyatning boshqa global muammolarini hal etish, dunyoda adolatli tartib o‘rnatish bilan bog‘liq bir maqsadga yo‘naltirilgan siyosiy faoliyatidan iboratdir²⁸. Bu yerda muallif tomonidan davlatlararo aloqalarga kengroq ta’rif berilgan bo‘lib, asosiy e’tibor davlatlararo aloqalar xalqaro huquq nuqtayi nazaridan xalqaro munosabatlarning bir qismi sifatida keltirib o‘tilgan.

Umuman olganda, Markaziy Osiyo mintaqasida mintaqaviy hamkorlik muammolarini tadqiq etgan olim O.Sirojov tomonidan berilgan ta’rifga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, mintaqaviy hamkorlik – bu obyektiv zaruriyat natijasida ma’lum bir mintaqada davlatlarining tenglik, ixtiyoriylik, umummilliy manfaatlarining uyg‘unlashuvi asosida birgalikdagi faoliyatidir²⁹.

O‘zbekistonlik olimlar N.Oblomurodov va N.Ko‘chimov davlatlararo aloqalarga ta’rif berar ekan, asosiy e’tiborni siyosiy aloqalarga qaratgan. Bunda, N.Oblomurodov va N.Ko‘chimov ta’rifida davlatlararo aloqalar – bu ikki yoki undan ortiq davlatlar o‘rtasida siyosiy hokimiyat o‘rtasida olib boriladigan munosabatlardir³⁰.

Davlatlararo munosabatlar subyektlari o‘rtasidagi muloqot amaliyotida bir necha darajalarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchisi – global daraja. Uning asosiy qamrovi – xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash hamda mustahkamlash maqsadida suveren davlatlarning sa’y-harakatlarini ixtiyoriy birlashtirish asosida 1945-yilda tashkil etilgan yirik xalqaro tashkilot – Birlashgan Millatlar Tashkiloti. BMTning asosiy organlari va, eng avvalo, Xavfsizlik Kengashi rasmiy ravishda o‘zaro bog‘liq bo‘lgan dunyoning nazorat bo‘g‘iniga, unda sodir bo‘layotgan murakkab

²⁷ H.Morgenthau “Politics among nations” New York 1990, 14-бет

²⁸ Джураев Қ. Сиёсатшунослик. – Т.: ЖИДУ, 2010 й. 221-бет

²⁹ Сирожов О. Марказий Осиёдаги минтақавий ҳамкорлик жараёнларида Ўзбекистон манфаатлари” //докторлик диссертация иши, 2018 йил, Тошкент, 49-бет

³⁰ Обломуродов.Н., Н.Кўчимов “Сиёсатшунослик” ўқув қўлланма Тошкент 2008, Солиқ академияси, 150-бет

jarayonlarni ongli ravishda tartibga soladigan platformaga aylanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti xalqaro sudining faoliyati ham muhim o‘rin tutadi. Davlatlararo aloqalarda qonun ustuvorligini tan olish mazkur organ qarorlariga hurmat va qat’iy rioya qilishni, davlatlarning xalqaro huquqiy normalar bilan oqilona o‘z-o‘zini cheklashini talab etadi.

Dunyoning turli burchaklarida faoliyat yuritayotgan xalqaro tinchlikparvar kuchlar kabi ixtisoslashgan BMT tuzilmasining faoliyat yuritishi ham amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Ikkinchi daraja – mintaqalararo. SSSR parchalanishidan oldin ikki qutb – kapitalistik va sotsialistik mamlakatlar hamda Qo‘shilmaslik harakati mamlakatlari guruhlaridan iborat edi. Hozirda ikki guruh – NATO va unga aloqador davlatlar (Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqalar) va Qo‘shilmaslik harakati³¹. Xalqaro munosabatlarda yetakchi kuch bugungi kunda global gegemonlikka harakat qilayotgan NATO bloki va AQSH hisoblanadi. Bugungi kunda Shanxay Hamkorlik tashkiloti (ShHT)ga Hindiston, Pokiston davlatlari a’zo bo‘lib kirgandan so‘ng ushbu tashkilotni ham mintaqalararo tashkilot sifatida ko‘rish mumkin. Masalan, BRIKS tashkiloti ham kengayish arafasida Misr, Efiopiya, Eron, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari mamlakatlarining tashkilotga a’zo bo‘lish taklifi ham aynan mintaqalararo hamkorlik kelishuvlari doirasidadir. Shuningdek, Turkiy tilli davlatlar kengashi ham mintaqalararo tashkilot sifatida Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Kavkaz mintaqalari davlatlarini qamrab oladi.

Uchinchi daraja – mintaqaviy. Uning subyektlari ma’lum geografik hududning davlatlaridir. Ular asosida tegishli mintaqaviy tashkilotlar (YI, ASEAN, Yevrosiyo Ittifoqi, MDH va boshqalar).

To‘rtinchi daraja – ikki tomonlama. Bu davlatlararo aloqalarning eng keng tarqalgan darajasi bo‘lib, uning subyektlari ikki mustaqil davlatlardir.

Yuqorida sanab o‘tilgan davlatlararo muloqot darajalari ancha o‘ziga xos bo‘lib, asosan, xalqaro maydonda yagona hokimiyat markazi mavjud emas. Huquqiy jihatdan teng bo‘lgan davlatlar, davlatlar uyushmalari ham mavjud, ular o‘rtasidagi munosabatlar kurash, tarixiy raqobat, muzokaralar, turli bitim va kelishuvlar natijasida shakllanadi. O‘z milliy chegaralari doirasida hokimiyat monopoliyasiga ega bo‘lgan davlat, ulardan tashqarida ko‘plab suveren davlatlardan biri bo‘lib, ular o‘rtasidagi munosabatlar bo‘ysunish asosida emas, balki hamkorlik yoki qarama-qarshilik asosida shakllanadi. Xususan, boshqa mamlakatlar bilan munosabatlarda har qanday davlat doimo tashqi muhit sharoitini, harbiy va iqtisodiy xavfsizlik masalalari bilan, asosan, davlatning hech qanday kuchga ega bo‘lmagan sharoitiga qarab hisobga olishi kerak. Shuning uchun har qanday davlat tashqi muhitga nisbatan o‘z xatti-harakatini modellashtiradi. Bu xatti-harakat davlatning tabiati va jamiyat ehtiyojlari bilan belgilanadi. Davlat faoliyat ko‘rsatayotgan tashqi muhitning tabiati ham muhim rol o‘ynaydi. Tashqi muhit rasmiy ravishda xalqaro shartnoma va bitimlar tizimi bilan ifodalanishi mumkin, bu shartlar davlat tomonidan

³¹ 1961-yilda tashkil etilgan bo‘lib, bugungi kunda 120 ta davlat a’zo hisoblanadi.

amal qiladi. Ular davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa ehtiyojlariga majburiy rioya qilish va ifodalash bilan yakunlanadi.

Fikrlarni xalqaro munosabatlarning ilmiy markazlari prizmasi orqali tahlil qilishda siyosiy realizm yoki neorealizmni, idealizm, liberalizm va neoliberalizmni, modernizm yoki postmodernizmni, konstruktivizm va relyativizmni, shuningdek, boshqa qator paradigmalari orqali tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, xalqaro munosabatlar nazariyasi bo‘yicha olim U.Xasanov fikricha, siyosiy tahlil va siyosiy modellashtirishning har xil yondashuv va usullari ma’lum – ular kognitiv, invent, kontent yoki miqdoriy bo‘lishidan qat’i nazar, bunda o‘zgarishsiz qoladigan yagona holat mavjud bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyati va hayot tarzi, milliy qadriyatlarining betakrorligi hamda noyob tarixi bilan ko‘z o‘ngimizda gavdalanadigan – bosh “qahramon”, markaziy ustun bo‘lib davlat qolaveradi. Mohiyatan, siyosat haqidagi fanning o‘zi ham o‘rganish obyekti sifatida davlat mavzusi uning jami rang-barangligi-yu taraqqiyoti bilan birgalikda tadqiq etishni asosiy maqsad qilib qo‘ygan³².

Davlatlar o‘z tashqi siyosiy faoliyatining har bir harakatida qandaydir umumiy manfaatlardan emas, balki har doim muntazam o‘zgarib boruvchi va tuzatilib boriluvchi o‘z manfaatlaridan kelib chiqadilar. Shakllantirilayotgan tuzilma davlat rahbarlarining tashqi siyosat yuritishdagi mafkuraviy salohiyati yoki dabdabali nutqlariga bog‘liq bo‘lmay, balki faqatgina ularning xatti-harakatlari-yu, muayyan ishlarida namoyon bo‘ladi. Bu har doim kamida butun bir qator birga kuzatiladigan omillar bilan o‘zaro bir-birini taqozo qiladigan jarayondir.

Biroq o‘zaro bog‘langanlik tendensiyasi ijobiy rivojlanishning ko‘p sonli misollariga qaramasdan, salbiy jihatlarga ham ega. Barcha davlatlar uchun chegaralarni mustahkamlash muammosi, o‘z hududlarini narkotrafikdan, qo‘poruvchi ekstremistik guruhlar kirib kelishidan, noqonuniy migratsiyadan, ommaviy qirg‘in qurollarining o‘ta xavfli turlarini ishlab chiqarish texnologiyalarini o‘tkazishdan himoya qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Dunyodagi hech bir davlat, u qanchalik boy va qudratli bo‘lishidan qat’i nazar, milliy manfaatlar va maqsadlarni xalqaro tizim shartlariga moslashish jarayonidan holi emas. Bu yerda bugungi zamonaviy xalqaro munosabatlarga xos bo‘lgan yana bir qonuniyat yuzaga keladi, ya’ni dunyoning hech bir davlati o‘z tashqi siyosiy muammolarini yolg‘iz o‘zi, mustaqil hal qilishga qodir emas³³. Masalan, AQSH qanchalik qudratga ega bo‘lmasin, u o‘z milliy xavfsizligini yakka tarzda ta’minlashga qodir emas. Bu turdagi bir tomonlama harakatlar muvaffaqiyatsizlikka uchrashi muqarrar. Bugungi Isroil davlati – Yaqin Sharqdagi kuchli va texnologik rivojlangan hamda AQSH tomonidan to‘liq qo‘llab-quvvatlanadigan davlatdir. Biroq ko‘pchilik isroillik siyosatchilar mazkur holat Falastin Avtonomiyasi va mintaqadagi unga chegaradosh mamlakatlar bilan faol muloqotni yo‘lga qo‘ymasdan turib hamda ana shu

³² Xasanov U. Xalqaro munosabatlar nazariyasiga kirish. – T, JIDU, 2017 2-3 b.

³³ Xasanov U. Xalqaro munosabatlar nazariyasiga kirish. – T, JIDU, 2017 24- b.

davlatlarning manfaatlarini hisobga olmasdan turib, yahudiy davlatining xavfsizligini to‘la kafolatlay olmasligini yaxshi tushunadilar. Davlatning mutlaq kuchi mavjud emas – dunyoda har qanday kuch, u qanchalik ta’sirli va keng ko‘lamli bo‘lmasin, har doim nisbiydir. Bu zamonaviy xalqaro munosabatlarning allaqachon davr sinovidan o‘tgan va isbot talab qilmaydigan aksiomasidir.

Shu sababli har qanday davlatning tashqi siyosati, xalqaro tizimning shakllanish jarayoniga ta’sir ko‘rsata borib, o‘zi ham uning sharoitlarini hisobga olishga majburdir. Buning sababi har qanday davlatlar o‘rtasidagi tashqi siyosatning o‘zaro tizimli bog‘liqligida bo‘lib, ayni bir vaqtning o‘zida biron-bir mutlaqo mustaqil tashqi siyosatning mavjudligini istisno etadi, ya’ni tizimdan tashqarida mavjud bo‘lgan faoliyatni istisno qiladi. Aynan shuning uchun ham markaziy kuch munosabatlarining ayrim birmuncha faol qatnashchilari Yaqin Sharqdagi, Sobiq Sovet hududidagi Markaziy Osiyoda va umuman, dunyodagi yangicha siyosiy shart-sharoitlar bilan hisoblashishga majburlar.

Bu yerda tashqi siyosatni shakllantiruvchi shaxslarning xohishlari va davlatning ehtiyojlari bilan uning haqiqiy imkoniyatlari o‘rtasidagi tafovutni ajrata bilish va, ko‘pincha, bunday xohish-ehtiyojlar bilan imkoniyatlar bir-biriga aynan to‘g‘ri kelavermasligini e’tiborda tutish kerak. Davlatlar o‘rtasidagi kelishuvlarning hamma shartlari ham haqiqiy bo‘lavermaydi va ko‘p hollarda u yoki bu vaziyatlarda majburiy murosaga aylanadi.

Xalqaro siyosatni o‘rganishga qaysi jihatdan yondashilmasin, bir narsa shubhasiz – davlat, u kichik yoki katta, boy yoki kambag‘al bo‘lishidan qat’i nazar, o‘z mustaqilligini saqlab turgan paytgacha, xalqaro tizimda mustaqil rol o‘ynaydi. Chegaradosh davlatlarning qo‘shni davlat iqtisodiy-siyosiy xavfsizligini ta’minlashdagi roli ushbu ikki davlatning o‘zaro munosabatlarini qay darajada tashkil etishlari hamda rivojlanishda umumiy manfaatlarini topa olish va o‘zaro munosabatlarda tushunish tamoyilining ustuvorligi ta’minlangan holda tashkil etilishi kerak. Davlatlararo aloqalar tashqi siyosatning qay darajada olib borilishini hamda ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanish jarayonini o‘zida aks ettiradi. Davlatlararo aloqalar mohiyatini tushunish uchun, avvalo, tashqi siyosat tushunchasiga aniqlik kiritib olish zarurdir.

Chunki, globallashtirish sharoitida hech qaysi davlat alohida, yani xalqaro tizimdan ayrilgan holatda mavjud bo‘la olmaydi, zero o‘zining barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun u xalqaro munosabatlar tizimining boshqa aktorlari bilan doimiy aloqaga kirishishi talab etiladi. Bunday aloqalar kompleksi esa davlatning tashqi siyosatini tashkil etadi.

Shu o‘rinda, O‘zbekiston va Qozog‘iston tashqi siyosatini xalqaro munosabatlar nazariyalari bo‘yicha qisqacha tahlil qilib ko‘rsak. Biz bunda mashhur G‘arb olimlari D.Singer, Dj.Rosenau va S.Kohen tomonidan tashqi siyosatni o‘rganish bo‘yicha ishlab chiqilgan algoritmlarni umumlashtirgan holatda foydalanamiz. D.Singer o‘zining 1961-yilda nashrdan chiqqan “Xalqaro munosabatlarda tahlil darajalari masalasi” asarida tashqi siyosat motivatori (yoki asosi) tushunchasini ham ko‘rib chiqqan bo‘lib, har qanday davlat tashqi siyosati uch xil motivator asosida shakllantiriladi, degan fikrni ilgari suradi. Bu motivatorlar:

1) milliy manfaatlar – eng maqbul va demokratik davlatlar tashqi siyosatiga xos, bunday tashqi siyosat stabil, keskin o‘zgarishlar unga xos emas, har bir harakat mantiqiy asosga ega;

2) davlat (apparat) manfaatlari va ehtiyojlari – muallif bunday tashqi siyosat olib boruvchi davlatlarga sobiq Sovet Ittifoqini misol qiladi, bunday tashqi siyosat o‘zgarishlarga moyil, yopiq ichki siyosatni va muntazam qattiq nazoratni hamda kuchli markazlashgan davlat apparatini talab qiladi;

3) muayyan bir guruh manfaatlari – muallif ushbu motivator orqali olib borilgan tashqi siyosatga o‘rta asrlardan misol keltiradi: Italiya shaharlari va gersogliklari tomonidan olib borilgan tashqi siyosat faqat muayyan zodagon sulola manfaatlari yo‘lida xizmat qilgan (masalan, butun Yevropadagi jarayonlarga ta’sir o‘tkaza olgan Medichilar sulolasi). D.Singer birinchi motivator orqali tashqi siyosatini shakllantirgan davlatlarni pragmatik va realistik siyosat olib boruvchi davlat deb ataydi.³⁴ Demak, birinchi tahlil metodimiz bu tashqi siyosat motivatori (asosi).

Ikkinchi tahlil algoritmini biz Dj.Rosenauning “Jahon siyosati tahlili: nazariy va metodologik chaqiriqlar” asaridan topamiz.³⁵ Bunda muallif tashqi siyosatni amalga oshirish mexanizmlarini alohida ajratib chiqadi:

- 1) hamkorlik – konstruktiv tashqi siyosatlarga xos, eng maqbuli;
- 2) raqobat – kolonial davrda Yevropa mamlakatlari o‘rtasida;
- 3) dushmanlik –antagonistik realizmga asoslangan, masalan bipolyar davrda;
- 4) o‘zaro befarqlik.

Uchinchi metodni biz fransuz olimi Samuil Koyenning “Zamonaviy davrda siyosatshunoslik” asaridan olishimiz mumkin. Unda Koyen Rosenau fikrlarini davom ettirgan holatda davlatlar tashqi siyosatida qaysi nazariya-yondashuv ustunlik qilishini bilish uchun uning tashqi siyosat mexanizmi formatiga e’tibor qaratish kerak deydi. Bular: sof ikki tomonlama format (realizmga xos); aralash ikki tomonlama format (konstruktivizm va realizm sinteziga xos); sof ko‘p tomonlama format (konstruktivizm va institutsionalizm, yoki konstruktivizm va iqtisodiy liberalizm, funksionalizm va liberalizm sintezlariga xos). Demak, uchinchi tahlil darajasi bu – tashqi siyosiy faoliyat mexanizmining asosiy formati sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Davlatlar tashqi siyosati murakkab va ko‘p darajali jarayon bo‘lib, u xalqaro munosabatlarning muhim komponenti hisoblanadi. Tashqi siyosat ijtimoiy munosabatlar tarixida davlatlar bilan deyarli bir vaqtda paydo bo‘ldi va shakllandi. Bir qarashda, tashqi siyosat aniq va oydin tushuncha ko‘rinsa-da, aslida, u murakkab jarayonlar tizimi hisoblanadi. Shu bois ham, tashqi siyosat mazmun mohiyatini o‘rganishdan avval uning umumqabul qilingan tariflari bilan tanishib chiqish va ular ichidan, bizningcha, eng maqbulini topish muhim ahamiyat kasb etadi.

³⁴ *Singer.D . The Level-of-Analysis Problem in International Relations // World Politics. 1961. № 1, p. 104-139*

³⁵ *Rosenau..J. The Study of World Politics: Theoretical and Methodological Challenges. N.Y.: Routledge, 2006, 52-bet*

Muayyan davlat tashqi siyosatining asoslari, uning mohiyatini anglash, davlatlararo munosabatlar va ular o‘rtasidagi hamkorlik yoki raqobatning fundamental sabablarini aniqlash uchun tashqi siyosat tushunchasi bilan bog‘liq nazariy yondashuvlarga alohida to‘xtalib o‘tish lozim. Zero, tashqi siyosatning umumiy nazariy-metodologik asoslarini bilmasdan turib, uning xususiy, maxsus va amaliy qismini tadqiq qilish mantiqqa ziddir.

Idealizm. Idealizm nazariyasi XVIII asrdan, yani Marifatparvarlik asridan boshlab taraqqiy topa boshlagan siyosiy nazariya bo‘lib, unga ko‘ra, siyosat bu to‘g‘ri va muvaffaqiyatli boshqarish san‘ati, haqiqiy siyosatchi esa insoniy qadriyatlarga asoslangan xulq-atvorga ega bo‘lgan shaxs. Nizolar, tajovuz va urush ildizlarini idealizm ichki ijtimoiy struktura va siyosiy birlikdagi jarayonlarga, aniqroq aytganda, “nosozliklarga” bog‘laydi. Idealistlarning tashqi siyosatga yondashuvi axloqiy-ma‘naviy tamoyillarga asoslangan. Ularning fikricha, ushbu tamoyillar va qadriyatlar raqobat, kurash va nizolardan farqli o‘laroq xalqaro birlikni, hamkorlikni ta‘minlaydi, demak tashqi siyosat umumiy foyda va mamlakatlarning umumiy manfaatlaridan kelib chiqib shakllantirilishi lozim.³⁶

Iqtisodiy liberalizm yondashuviga ko‘ra, erkin bozor va biznes o‘zaro manfaatli munosabatlarni talab qiladi va ta‘minlaydi³⁷. O‘zaro manfaatlarga asoslangan tashqi siyosat esa, avvalo, mintaqaviy, so‘ngra global hamkorlikka zamin yaratadi. Ushbu yondashuv uchun tashqi siyosatning asosi iqtisodiy manfaatlar va sherikchilik bo‘lishi kerak.

Realistik yondashuv xalqaro siyosat va turli xalqaro jarayonlar va hodisalarni insonlar va mamlakatlarning aniq belgilangan xususiyatlaridan kelib chiqib o‘rganadi. Realistik yondashuvning ilk asoslari Fukudid, Makiavelli, Gobbs asarlarida yaratilgan. Ikkinchi jahon urushidan keyin esa bu yondashuv Morgentau ilmiy izlanishlari natijasida qayta “tug‘ildi”. Realistiklar asosiy urg‘uni markaziy hokimiyatga va hukumatga, milliy manfaatlar, kuchlar muvozanati tushunchalariga beradi. Ular uchun tashqi siyosatning eng birinchi asosi va eng samarali vositasi – kuch. Bu nazariyaga ko‘ra, tashqi siyosiy jarayonlarning ratsional ishtirokchisi bu o‘z milliy manfaatlarini maksimal qondira oladigan subyektdir. Milliy xavfsizlik va manfaatlar har qanday mamlakatni boshqarish, qaror va siyosiy yo‘nalishlarni qabul qilishni baholash uchun birlamchi asos.

“Demokratik dunyo” yondashuvi: o‘z asoslarini I.Kant g‘oyalaridan oladi. Unga ko‘ra tashqi siyosat mamlakatlar siyosiy tizimi mohiyati va xarakteri funksiyasidir. Kant davlatlar o‘rtasida barqaror tinchlik o‘rnatilishining birinchi sharti sifatida erkinlik va fuqarolar ehtiyojlarini qondirilishiga asoslangan respublika tizimini ko‘radi. Aynan respublika tizimida va demokratik tamoyillarda o‘z ichki siyosatini yo‘lga qo‘ygan mamlakat tashqi siyosatida ham xatoliklarga yo‘l qo‘ymaydi, tashqi siyosiy vaziyatlarni yechishda demokratik usullardan foydalanadi. Demak, demokratik yondashuvga ko‘ra tashqi siyosat ichki siyosatning tashqi muhitdagi davomidir.

³⁶ Smith.S, Hadley.A and Dune.T (eds), Foreign policy: Theories, Actors, Cases, 1st edition., Oxford University Press, 2008, pp.36-39

³⁷ Feinberg.W, in International Encyclopedia of Education (Third Edition), 2010, 32-bet

Liberal institutsionalizm: ushbu nazariy qarash vakillarining fikricha, xalqaro siyosat faqatgina davlatlar monopoliyasida bo‘lishi kerak emas. Ular transmilliy va xalqaro nodavlat tashkilotlar, guruhlar va shaxslar hamda xalqaro siyosiy jarayonlar aktorlari bo‘la oladi, degan fikrni ilgari suradilar.

Qayd etib o‘tilgan ilmiy yondashuvlardan tashqari, tashqi siyosat, jahon siyosati va xalqaro munosabatlarni globalizatsiya nuqtayi nazaridan ham tahlil qilish mumkin. Bunday tahlil, asosan, ikki yondashuv asosida: universalizm va transformatsion yondashuvlar yordamida amalga oshiriladi.

Universalizm nazariyasi: davlatning jahon siyosatidagi aktorlik roli pasaymoqda, va jahon bozorining yuzaga kelishi iqtisodiyotning milliy chegaralardan kengroq ahamiyat kasb etishiga sabab bo‘ldi. Transmilliy tashkilotlar va siyosiy kuchlarning yangi ko‘rinishlari joriy mavjud strukturalar o‘rnini egallaydi.

Transformatsion yondashuv esa zamonaviy sharoitda dunyoda iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarida tezkor o‘zgarishlar sodir bo‘layotganini tan oladi. Ammo, shu bilan birga, globalizatsiya mamlakatlar va, ayniqsa, ularning tashqi siyosiy faoliyati uchun yangi muammolar va imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Globalizatsion loyihalar omillari va boshqaruv richaglarini o‘z qo‘liga olgan aktorgina ushbu yangilanishlar jarayonida ulkan muvaffaqiyatlarga erishadi³⁸.

Tashqi siyosat tahlili nazariyasi asosiy urg‘uni tashqi siyosatni o‘rganishda qaror qabul qilish darajalariga beradi. Bu yondashuv o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan rivojlana boshlagan. Ushbu qarashni o‘zida jam qilgan birinchi ilmiy ish R.Sneyder, G.Brak va B.Sapin tomonidan elon qilingan. Ushbu ilmiy ishda ular tashqi siyosiy qarorlar qabul qilishda tahlil darajalarini belgilab olish lozimligini ta’kidlashgan³⁹.

Boshqa bir olimlar guruhi G.Sprout va M.Sprout esa davlatlararo munosabatlarni o‘rganishda tashqi siyosat va unga ta’sir qiluvchi psixologik muhitni hisobga olmasdan o‘rganish xato ekanligini isbotlashga harakat qilishgan⁴⁰. Mazkur ilmiy izlanishlarning tashqi siyosat umumiy nazariyasiga qo‘shgan muhim hissasiga qaramasdan, ularda tashqi siyosat kompleks tadqiq qilinmagan, balki uning alohida darajalari o‘rganilgan. Tashqi siyosat nazariyasi shakllanishiga eng katta hissa qo‘shgan mutaxassislardan biri J.Rozenau bo‘lib, u o‘zining “Tashqi siyosat proto-nazariyalari va nazariyalari” asarida “tashqi siyosat” kategoriyasini yaxshiroq tushunish uchun umumlashtiruvchi nazariya ishlab chiqish va bu nazariya asosida turli tahlil darajalari: siyosiy yetakchining individual xususiyatlaridan tortib, xalqaro munosabatlar tizimigacha yoritilishi kerakligini yozadi.

³⁸Lamy.S Contemporary Approaches: Neo-realism and neo-liberalism in "The Globalisation of World Politics" University Press, 4th ed, p127(source:books.google.com/stevenlamy/all/ neo-realism/0094%fCEd7.html)

³⁹ Snyder.R., Bruck H., Sapin B. Decision-Making as an Approach to the Study of International Politics. – Princeton: Princeton University Press, 1954. 120 p.

⁴⁰H.Sprout, Sprout M. Man-Milieu Relationship Hypotheses in the Context of International Politics. Princeton: Princeton University Press, 1956. 101 p.

K. Uolts, D.Singer kabi boshqa G‘arb mutaxassisleri ham tashqi siyosatni o‘rganishda o‘zlarining tahlil darajalarini tadqim etganlar⁴¹. Tashqi siyosat tahlili nazariyasining boshqa yondashuvlardan farqi, u tashqi siyosatda qaror qabul qilish jarayoniga tasir qiluvchi omillariga katta urg‘u beradi.

Madaniy-sivilizatsion yondashuv. Ushbu yondashuvga ko‘ra, davlat tashqi siyosati va uning boshqa mamlakatlar bilan munosabatiga madaniy (jamiyatning qadriyatlar va mental tizimi, etnik, diniy, lingvistik va shunga o‘xshash yaqinlikning mavjudligi va h.k) unsurlar birlamchi ta’sir etadi. O‘zaro bir sivilizatsiyaga taalluqli yoki madaniyati yaqin, tarixiy davrlar mobaynida siyosiy tizimlar va strukturalar ta’siriga qaramasdan doimiy bo‘lgan davlatlarda o‘zaro tushunish va muvaffaqiyatli hamkorlik qilish imkoniyati mental ravishda yuqori bo‘ladi. Mazkur yondashuv rivojlangan G‘arb mamlakatlari o‘rtasidagi yaqin ittifoqchilik aloqalarini tushuntirib bera olsa-da, boshqa madaniy-sivilizatsion birliklar (islom dunyosi, arab dunyosi, slavyan dunyosi, turkiy xalqlar dunyosi va h.k.)da G‘arb dunyosidagi kabi ittifoqchilik va hamjihatlik aloqalari deyarli shakllanmaganligini to‘liq izohlab bera olmaydi.

Xulosa. Masalaning mohiyatiga doir yuqorida keltirilgan turli yondashuv, qarash va tamoyillar davlatlararo aloqalarning murakkab va serqirra ekanini ko‘rsatadi. Shunday bo‘lsa-da, mavjud fikr-mulohazalarning tahlili va muayyan tajribaga tayangan holda, bizningcha, quyidagi fikrlarni ilgari surish joiz:

Davlatlararo aloqalarning siyosiy mazmuni haqida so‘z yuritganda, avvalo, “xalqaro munosabatlar” atamasiga oydinlik kiritish zarur. Zero, davlatlar o‘rtasidagi turli miqyos va yo‘nalishlardagi hamkorlik aloqalari bevosita xalqaro munosabatlar tizimining alohida elementlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Xalqaro munosabatlar deganda jahon hamjamiyatini tashkil etuvchi va o‘zaro turli sohalarda hamkorlik qiluvchi alohida davlatlar, millatlar va xalqlar o‘rtasidagi munosabatlar tizimi nazarda tutiladi. Xalqaro munosabatlar xilma-xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Xususan, siyosiy hayotda ular diplomatik munosabatlarda, iqtisodiy hayotda xalqaro savdo-sotiq aloqalari va xalqaro mehnat taqsimoti jarayonida, texnik sohada esa o‘zaro texnologiyalar almashinish, grantlar e‘lon qilish yoki taqdim etish kabilarda aks etadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda davlatlararo aloqalar (munosabatlar) – xalqaro munosabatlar ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, huquq, siyosat, iqtisodiyot, madaniyat va boshqa sohalarda o‘zaro aloqalarga kirishuvchi davlatlar uning ishtirokchilari sifatida namoyon bo‘ladi.

Albatta, davlat bunday aloqalarga o‘z-o‘zidan kirisha olmaydi, balki bunda davlat hukumati rahbarlari – prezident, bosh vazir, tashqi ishlar vazirlari va boshqa vakolatli muassasalarning mansabdor shaxslari faoliyat olib boradi.

⁴¹Waltz. Man, the State, and War: www.books.google.com/foreign-policy-analysis-levels/all-books/010010276%CA%2BG : A Theoretical Analysis. N.Y.: Columbia University Press, 2001. p. 263; Rosenau J. The Study of World Politics: Theoretical and Methodological Challenges. N.Y.: Routledge, 2006. p. 171-197; Singer D. The Level-of-Analysis Problem in International Relations // WorldPolitics. 1961. № 1. p. 77-92.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

- 1.Л.Воронков “Международные организации и современные международные отношения” Elektron manba: <https://interaffairs.ru/jauthor/material/951> elektron manba. kirilgan sana: 12.01.2021
- 2.R.Rummel “The international actors” <https://www.jstor.org/stable/174325> elektron manba. kirilgan sana: 12.01.2021
- 3.H.Morgenthau “Politics among nations” New York 1990, 14-бет
- 4.Джураев Қ. Сиёсатшунослик. – Т.: ЖИДУ, 2010 й. 221-бет
- 5.Сирожов О. Марказий Осиёдаги минтақавий ҳамкорлик жараёнларида Ўзбекистон манфаатлари” //докторлик диссертация иши, 2018 йил, Тошкент, 49-бет
- 6.Обломуродов.Н., Н.Кўчимов “Сиёсатшунослик” ўқув қўлланма Тошкент 2008, Солиқ академияси, 150-бет
- 7.Хасанов У. Халқаро munosabatlar nazariyasiga kirish. – Т, JIDU, 2017 2-3 b.
- 8.Singer.D . The Level-of-Analysis Problem in International Relations // World Politics. 1961. № 1, p. 104-139
- 9.Rosenau.J. The Study of World Politics: Theoretical and Methodological Challenges. N.Y.: Routledge, 2006, 52-bet
- 10.Smith.S, Hadley.A and Dune.T (eds), Foreign policy: Theories, Actors, Cases, 1st edition., Oxford University Press, 2008, pp.36-39
- 11.Feinberg.W, in International Encyclopedia of Education (Third Edition), 2010, 32-bet
- 12.Lamy.S Contemporary Approaches: Neo-realism and neo-liberalism in "The Globalisation of World Politics” University Press, 4th ed, p127(source:books.google.com/stevenlamy/all/ neo-realism/0094%fCEd7.html)
- 13.Snyder.R., Bruck H., Sapin B. Decision-Making as an Approach to the Study of International Politics. – Princeton: Princeton University Press, 1954. 120 p.
- 14.H.Sprout, Sprout M. Man-Milieu Relationship Hypotheses in the Context of International Politics. Princeton: Princeton University Press, 1956. 101 p.
- 15.Waltz. Man, the State, and War: www.books.google.com/foreign-policy-analysis-levels/all-books/010010276%CA%2BG : A Theoretical Analysis. N.Y.: Columbia University Press, 2001. p. 263; Rosenau J. The Study of World Politics: Theoretical and Methodological Challenges. N.Y.: Routledge, 2006. p. 171-197; Singer D. The Level-of-Analysis Problem in International Relations // WorldPolitics. 1961. № 1. p. 77-92.